

**AGROKLASTERLARNI INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA
RIVOJLANTIRISH SHART-SHAROITLARI VA YO‘NALISHLARI****Saidakbarov Saida’zam Aziz o‘g‘li***Toshkent davlat agrar universiteti stajyor – o‘qituvchisi***Tolibjonov Islombek Alisher o‘g‘li***Toshkent davlat agrar universiteti bakalavr talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash jarayonini takomillashtirishda agroklasterning tashkil etilishi, nazariy jihatlarini, faoliyat ko‘rsatishdagi shart-sharoitlari to‘g‘risidagi fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *ozuq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlash, klaster, globallashtirish, klaster strategiyasi, agroklasterning, innovatsion texnologiyalar*

Аннотация: *В данной статье рассмотрены организация, теоретические аспекты и условия функционирования агрокластеров при совершенствовании переработки сельскохозяйственной продукции в условиях инновационной экономики.*

Ключевые слова: *продукты питания, переработка, кластеризация, глобализация, кластерная стратегия, агрокластеры, инновационные технологии.*

Annotation: *This article describes the organization, theoretical aspects and conditions of operation of agroclusters in improving the processing of agricultural products in an innovative economy.*

Keywords: *food, processing, clustering, globalization, cluster strategy, agro-clusters, innovative technologies*

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida tarkibiy-institutsional o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish orqali ishlab chiqarishni izchil va samarali rivojlantirish, aholini oziq-ovqat mahsulotlari, qayta ishlash sanoatini esa xom ashyo bilan uzluksiz ta‘minlash, mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirilishi ko‘zda tutilgan eng muhim ustuvor vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun dehqon va tomorqa xo‘jaliklari erlaridan foydalanishni oqilona boshqarish, tashkil etish va pirovardida qishloq aholisi bandligini ta‘minlashda hamda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari hajmlarini keskin oshirishga erishish muhim amaliy ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Jahon tajribalaridan foydalanib, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi tarmog‘ida ham agroklasterni shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha puxta o‘ylangan strategiya ishlab chiqilmoqda va yirik ishlar amalga oshirilmoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan ko‘pgina mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda klaster yondashuvidan ommaviy ravishda foydalanib kelinmoqda.

O'tgan yillar davrida mamlakatimiz qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida klaster faoliyati etarli darajada asoslab berilmagan edi. Ammo keyingi vaqtda qishloq xo'jaligi tarmog'ida klasterlashtirishni rivojlantirish borasida ilmiy izlanishlarga nisbatan amaliyot ancha jadallashganini kuzatish mumkin. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining deyarli barcha hududlarida agroklasterni, ayniqsa paxtachilikda klasterlarni tashkil etish va rivojlantirish borasida amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Bugungi kun amaliyotida mahsulot ishlab chiqarishdan iste'molchigacha bo'lgan zanjirli bog'lanishni klaster jarayoni deb yuritish qabul qilingan. Xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning tahlillarida – klaster tushunchasiga bir qator ta'riflar berilgan.

Klaster - bitta sohaga birlashgan va bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan korxonalar guruhi.

Klaster - bitta geografik hududda joylashgan va bitta tarmoqni tashkil qiladigan firmalar guruhi.

Klaster - gorizontal va vertikal ravishda funksional bog'liq bo'lgan firmalar guruhi.

Klaster - hududiy konsentratsiyalashuvga asoslangan va texnologik zanjirga bog'langan tovar va xom ashyo etkazib beruvchilar, asosiy ishlab chiqaruvchilarni birlashtirgan industrlashgan majmua.

Umuman olganda iqtisodiyotda klasterlashtirish - bu bitta geografik hududda konsentratsiyalashgan va ma'lum bir aniq vazifani echishga qaratilgan firmalar guruhi bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy aloqadagi, jamoviy raqobatlashuvni mustahkamlash maqsadida ishchi kuchlarini o'zaro birlashtiruvchi jarayondir.

Tadbirkorlik tuzilmalari uchun klasterlar: yirik investitsiya loyihalarida ishtirok etish; qo'shimcha daromad olish; yangi bozorlarga chiqish; innovatsiyalarni joriy etish bo'yicha xarajatlarni qisqartirish; innovatsion faoliyatni infratuzilmaviy ta'minlash; xodimlar malakasini oshirish; kichik korxonalarni innovatsion faoliyatga jalb etish va pirovardida raqobatbardoshlikni ko'tarish omili hisoblanadi. Bunda har bir klaster ishtirokchisi bo'lgan korxonalar o'z maqsadini ko'zlagan holda nafaqat o'z xo'jalik faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradi, balki tadbirkorlik infratuzilmasini shakllantirishga ko'maklashgani holda, hududda faoliyat yuritayotgan turli xildagi boshqa korxonalarining iqtisodiy o'sishiga yordam beradi.

Xorijiy va mahalliy ekspertlarning ta'kidlashicha, hudud mamlakat iqtisodiyotining o'sib borishi, aholi soni va ularning real daromadlarining ortishi qishloq xo'jaligi tarmog'ida oldiga yangidan yangi talablarni qo'yimoqda. Bu talablarga javob berish esa, iqtisodiyotni tubdan isloh etish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Oxirgi yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida yuzaga kelgan muammolarni amaliy echimini topish uchun uni rivojlantirishga yangicha munosabat bildirish, yondashish zarurligi yuzaga chiqdi. Agrar iqtisodchi olim va amaliyotchilar qishloq xo'jaligi tarmog'ini jadal va barqaror rivojlantirishning eng samarali yo'nalishlarini belgilash, sohani yangi bosqichga olib chiqadigan ilmiy ishlanma, chora-tadbirlarni yaratish ustida ishlamoqdalar. Bu harakatlar natijasida mamlakat agrosanoat majmuasini

rivojlantirishda klasterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi e'tirof etilmoqda. Ushbu masalaga e'tibor qaratib O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Ma'lumki, mamlakatimiz to'qimachilik sanoati 1 million 400 ming tonnagacha paxta tolasini qayta ishlash imkoniyatiga ega. Bu respublikamizdagi tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar ehtiyojini to'liq qoplay oladi. Lekin paxta tolasini qayta ishlash sanoatini boshqarishda ko'pgina muammolar mavjud. Bu esa paxta xomashyosini ishlab chiqarish va qayta ishlashda rentabellikning pasayishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan sohadagi muammolarni hal etish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni yanada rag'batlantirishga oid alohida Farmon qabul qilindi. Bugungi kungacha o'zimizning to'qimachilik korxonalarimizga paxta xomashyosini faqat O'zpxtasanoat aksiyadorlik jamiyati orqali sotar edik. Farmonga muvofiq to'qimachilik korxonalarini paxta xomashyosini endi to'g'ridan to'g'ri tuzilgan shartnoma asosida bevosita fermerlardan sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldi. [1]

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, innovatsion iqtisodiyot O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi tarmog'ini jadal va barqaror rivojlantirish siyosatini olib borishda klaster modelidan keng foydalanishni eng asosiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tiborga olmoqda. Globallashtirish asosida logistika va tovarlar hamda xizmatlar sifatini ham standartlashtirishni ta'minlovchi umumjahon kommunikatsiya tizimi ham rivojlanib bormoqda. Integratsiyalashuvning kichik darajasi mamlakatlar iqtisodiyotida yangi xo'jalik yuritish tizimini shakllantirish yo'li hisoblanib, o'zaro pirovard maxsulot ishlab chiqaradigan va geografik yaqin bo'lgan korxonalar va tashkilotlarni o'z ichiga olgan klasterlar yaratishdir. [2]

Klasterlarni shakllantirishdan maqsad – shahar, tuman va viloyat ichida joylashgan bir xil soha korxonalarini va ular bilan yagona texnologik zanjirda bo'lgan ta'lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash va boshqa xizmatlarni uyg'unlashtirish – innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish asosida raqobatbardosh tovarlar yaratishga yo'naltirishdan iborat.

Jahon iqtisodiyotida klaster strategiyasidan samarali foydalanilmoqda. Jumladan, AQSH sanoatining 50 foizdan ortig'ini klaster tarkibida faoliyat yurituvchi korxonalar tashkil etadi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotning 60 foizdan ortig'i aynan klasterda faoliyat yurituvchi korxonalar hissasiga to'g'ri keladi. Evropa Ittifoqi mamlakatlarida esa klasterlar soni 2000 dan ziyodni tashkil etib, ularda jami ish bilan band aholining 38 foizi faoliyat yuritadi.[3]

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, klasterlarni shakllantirishdan maqsad shahar, tuman va viloyatda joylashgan turdosh korxonalar va ular bilan yagona texnologik zanjirda faoliyat yurituvchi ta'lim, ilmiy, injiniring, konsalting, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va boshqa turli xizmatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Shu bilan birga, klaster innovatsion ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish asosida korxonalar raqobatbardoshligini ta'minlash vositasi hisoblanadi.

O‘zbekiston to‘qimachilik va engil sanoati sohasida klasterlarni shakllantirish masalasi o‘ta dolzarb xisoblanib, buni ijobiy hal etish mamlakat miqyosida vertikal yo‘nalish va gorizontal tizimda, viloyatlarning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni, raqobat muhitini va klasterlash imkoniyatlarini aniqlash asosida shuningdek, sohaga ixtisoslashgan ta’lim va ilm-fan rivojlanayotgan hududlarda shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasini qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi to‘g‘risidagi PF-5853-son Farmoni. 2019 - yil 23- oktyabr.
2. Fayzieva Sh.Sh., Yuldashev N.N. The role of livestock reform in the development of the country's economy. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. <https://saarj.com> ISSN: 2249-7137 Vol.11, Issue 2, February 2023 Impact Factor: SJIF 2023 = 7.492
3. Fayzieva Sh.Sh., Djalilovna N.M., Yuldasheva Sh.A. The main directions of reforms in the livestock sector in the development of the country's economy// TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research (TAJMMR). – 2022. – T. 9. – №. 4. – S. 67-71.